O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI HUZURIDAGI SUDLAR FAOLIYATINI TA’MINLASH DEPARTAMENTI ANDIJON VILOYAT HUDUDIY BO‘LIMI BOSHLIG‘INING

14-UM -sonli
BUYRUG‘I

2025-yil 02- iyul Andijon shahri

“Xarid komissiyasi tarkibini qayta tasdiqlash to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №O‘RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, Davlat byudjetidan va byudjetdan tashqari maxsus jamg‘armadan ajratiladigan pul mablag‘laridan oqilona foydalanish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti Andijon viloyat hududiy bo‘limiga tovar moddiy boyliklarni (ishlarni va xizmatlarni) xarid qilish bo‘yicha:

-tanlov orqali tovar (ishlar va xizmatlar)ning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining 6000 (olti ming) baravarigacha bo‘lgan miqdorida;

-tender orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq summani tashkil etishi va mazkur qonunda belgilangan boshqa talablarga amal qilgan holda quyidagi tarkibda xarid komissiyasi tuzilsin:

Komissiya raisi:	bo‘lim boshlig‘i	- B.Kadirov
Komissiya a’zolari:	bosh mutaxassisi	- E.Xidirov
	bosh muhandis	- D.Umarxonov
	xo‘jalik mudiri	- A.Xaydaraliyev
	rahbar kotibi	- S.Xaydarova
Komissiya kotibi:	Bugalter-kassir	- F.G‘ulomjonov

2. Xarid komissiyasi a'zolarining lavozimi o'zgargan taqdirda, uning o'rniga tayinlangan xodim komissiya a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishi belgilab qo'yilsin.

3. Davlat xaridlari bo'yicha barcha elektron savdo platformalarida reja jadvallarni kiritish, nizom talablariga muvofiq auksion, tanlov, tender e'lonlarini joylashtirish, Elektron do'konda Davlat xaridlarini amalga oshirish va yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar rasmiylashtirilishda mas'ul etib hududiy bo'lim bosh mutaxassisi Xidirov Elyorbek Dadajonovich tayinlansin.

4. Muqaddam hududiy bo'lim tomonidan xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash bo'yicha chiqarilgan buyruqlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasining 2021- yil 22- apreldagi № O'RQ - 684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunining 20-moddasi.

Hududiy bo'limi boshlig'i **B.Kadirov**